

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirining  
2025 yil "23" iyundagi  
180-sonli buyrug'iga  
ilova

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**RESPUBLIKA IXTISOSLASHTIRILGAN EPIDEMIOLOGIYA MIKROBIOLOGIYA  
YUQUMLI VA PARAZITAR KASALLIKLAR ILMIY-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI**

**“QIZAMIQ” NOZOLOGIYASI BO‘YICHA MILLIY  
KLINIK BAYONNOMALAR**

**TOSHKENT 2025**

«KELISHILGAN»

Respublika ixtisoslashtirilgan  
epidemiologiya, mikrobiologiya,  
yuqumli va parazitlar kasalliklar ilmiy-  
amaliy tibbiyot markazi direktori

  
" 2025-yil

«QIZAMIQ» NOZOLOGIYASI BO‘YICHA MILLIY  
KLINIK PROTOKOL

TOSHKENT 2025

Mundarija

QIZAMIQ NOZOLOGIYASI BO‘YICHA TASHXISHLASH VA DAVOLASH MILLIY  
KLINIK BAYONNOMASI.....

.....**Ошибка! Закладка не определена.**

QIZAMIQ NOZOLOGIYASI BO‘YICHA TIBBIY ARALASHUVLAR MILLIY KLINIK  
BAYONNOMASI.....34

QIZAMIQ NOZOLOGIYASI BO‘YICHA PROFILAKTIKA VA REABILITATSIYA MILLIY  
KLINIK BAYONNOMASI.....41

**QIZAMIQ NOZOLOGIYASI BO‘YICHA  
TASHXISHLASH VA DAVOLASH MILLIY  
KLINIK BAYONNOMASI**

## 1. Kirish qismi

### KXT-11 bo'yicha kodlar:

B05	Qizamiq;
B05.0	Ensefalit bilan asoratlangan qizamiq;
B05.1	Meningit bilan asoratlangan qizamiq;
B05.2	Pnevmoniya bilan asoratlangan qizamiq;
B05.3	O'rta otit bilan asoratlangan qizamiq;
B05.4	Ichak kasalliklari bilan asoratlangan qizamiq;
B05.8	Boshqa kasalliklar bilan asoratlangan qizamiq;
B05.9	Asoratlanmagan qizamiq.
	<a href="https://icd.who.int/browse11/lm/ru">https://icd.who.int/browse11/lm/ru</a>
	<a href="https://mkb-10.com/">https://mkb-10.com/</a>

**Bayonnomani ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish sanasi:** 2025, qayta ko'rib chiqish sanasi 2028 yoki yangi asosiy dalillar paydo bo'lganda. Taqdim etilgan tavsiyalarga kiritilgan har qanday tuzatishlar tegishli hujjatlarda e'lon qilinadi.

**Ushbu klinik bayonnoma va standartni ishlab chiqish uchun mas'ul muassasa:**

**Respublika ixtisoslashtirilgan epidemiologiya mikrobiologiya yuqumli va parazitir kasalliklar ilmiy-amaliy tibbiyot markazi**

**Klinik bayonnoma va standartni ishlab chiqishga quyidagilar hissa qo'shdilar:**

Jarayonni tashkil etish uchun yuqumli kasalliklar bo'yicha ishchi guruh a'zolari:

1.	Tuychiyev Laziz Nadirovich	Toshkent tibbiyot akademiyasi yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini mudiri, t.f.d., prof. TTA Jamoat salomatligi va menejmenti kafedrasini mudiri, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bolalar yuqumli kasalliklari bo'yicha bosh mutaxassisi, t.f.d., dotsent	Toshkent tibbiyot akademiyasi
2.	Xudaykulova Gulnara Karimovna	TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini dotsenti, t.f.d.	Toshkent tibbiyot akademiyasi
3.	Raxmatullayeva Shahnoza Baxadirovna	TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini dotsenti, t.f.n.	Toshkent tibbiyot akademiyasi
4.	Mo'minova Mahbuba Teshayevna	TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini dotsenti, t.f.n.	Toshkent tibbiyot akademiyasi
5.	Sodiqov Humoyun-Mirzo Abdullayevich	TTA yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasini assistenti	Toshkent tibbiyot akademiyasi
6.	Babajanova Farida Umarovna	TTA ko'p tarmoqli klinikasining bolalar yuqumli kasalliklari bo'limi mudiri, t.f.n.	Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi

### Asosiy mualliflar ro'yxati:

1. Xudaykulova Gulnara Karimovna — t.f.d., Toshkent tibbiyot akademiyasi yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida dotsenti
2. Raxmatullayeva Shahnoza Baxadirovna — t.f.d., Toshkent tibbiyot akademiyasi yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida dotsenti
3. Mo'minova Mahbuba Teshayevna — t.f.n., Toshkent tibbiyot akademiyasi yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida dotsenti
4. Sodiqov Humoyun-Mirzo Abdullayevich — Toshkent tibbiyot akademiyasi yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasida assistenti
5. Kim Vladlen Maksimovich — Toshkent tibbiyot akademiyasi davolash fakulteti talabasi

### Taqrizchilar:

Ibadova Gulnara Aliyevna

T.f.d., tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish markazi yuqumli kasalliklar kafedrasining professori, O'zbekiston

Abuova Guljan Narkenovna

Janubiy Qozog'iston tibbiyot akademiyasi AJ yuqumli kasalliklar va teri-tanosil kasalliklari kafedrasida professori, Chimkent, Qozog'iston

Klinik bayonnoma oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, O'zbekiston yuqumli kasalliklar assotsiatsiyasining tarkibiy a'zolari, sog'liqni saqlash tashkilotchilari (RSNPMTSEMIPZ filiallarining direktorlari va o'rinbosarlari), yuqumli kasalliklar xizmati tizimining hududiy muassasalari shifokorlari ishtirokidagi ishchi guruhning yakuniy yig'ilishida norasmiy kelishuvga erishilgan holda onlayn formatda 2023-yil 27-dekabr, 9-sonli bayonnoma muhokama qilindi va tasdiqlash uchun tavsiya etildi.

Ishchi guruh rahbari – t.f.d., Tuychiyev L.N.

Mazkur klinik protokol va standartlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vaziri o'rinbosari Basitxanova E.I, Tibbiy sug'urta boshqarmasi boshlig'i Sh. Almardanov, klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi boshlig'i Sh.R. Nurimova boshchiligida, Klinik protokollar va standartlarni ishlab chiqish va joriy etish bo'limi bosh mutaxassisi G.Djumayeva, yetakchi mutaxassisi N.Raximova tomonidan tashkiliy va uslubiy ko'magi asosida ishlab chiqilgan.

## Qisqartmalar ro'yxati

AB	arterial bosim
OIV	odam immuntanqisligi virusi
JSST	Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti
OTM	oliy ta'lim muassasasi
DVS	disseminatsiyalangan tomir ichi ...
DNK	dezoksiribonuklein kislotasi
O'BY	o'tkir buyrak yetishmovchiligi
OMS	orqa miya suyuqligi
ITSH	infeksion-toksik shok
DPM	davolash profilaktika muassasasi
O'zR SSV	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
PZR	polimeraz zanjir reaksiyasi
SJM	standart jarrohlik muolajalari
ECHT	eritrotsitlarning cho'kish tezligi
UTT	ultra-tovush tekshiruvi
MAT	markaziy asab tizimi
EKG	elektrokardiografiya
EEG	elektroensefalografiya

## Bayonnoma foydalanuvchilari:

Umumiy amaliyot shifokorlari, terapevtlar, tez tibbiy yordam shifokorlari / feldsherlar, yuqumli kasalliklar bo'yicha mutaxassislar, anesteziolog-reanimatorlar, pediatriklar, nevrologlar, klinik ordinatorlar, magistrantlar, tibbiyot oliy o'quv yurtlarining doktorantlari.

Ushbu bayonnoma joylarda qizamiq kasalligini tashxislash va davolashning zamonaviy usullarini sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etish uchun asos bo'lmoqda.

## Ushbu nozologiyadagi bemorlar toifasi:

qizamiq bilan og'riqan bemorlar

## Dalillarga asoslangan tibbiyotga oid dalillar darajasining shkalasi.

### Tashxisot usullari (tashxisiy aralashuvlar) uchun dalillarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

DID	Ta'rifi
1	Referens usulidagi tadqiqotlarni nazorat ostida tizimli ko'rib chiqish yoki meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish
2	Alohida referens tadqiqotlarni nazorat ostida yoki alohida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va meta-tahlil yordamida randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlardan tashqari har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ko'rib chiqish
3	Referens usulidagi tadqiqotlarni ketma-ket nazoratsiz yoki o'rganilayotgan usuldan mustaqil bo'lmagan referens usuli bilan tadqiqotlar yoki randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan kogort tadqiqotlari
4	Qiyosiy bo'lmagan tadqiqotlar, klinik holatni tasvirlash
5	Faqatgina ta'sir mexanizmining asosi yoki ekspert xulosasi mavjud

## Profilaktika, davolash va rehabilitatsiya tadbirlari uchun dalillarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi

DID	Ta'rifi
1	Meta-tahlil yordamida RKT larni tizimli ko'rib chiqish

2	Alohida RKT lar va meta-tahlil yordamida RKT lardan tashqari har qanday dizayndagi tadqiqotlarni tizimli ko‘rib chiqish
3	Randomizatsiyalanmagan qiyosiy tadqiqotlar, shu jumladan. kogort tadqiqotlari
4	Qiyosiy bo‘lmagan tadqiqotlar, klinik holatl yoki holatlar seriyasini tasvirlash, “holat-nazorat” usulida tadqiqotlar
5	Faqatgina aralashuvning ta’sir mexanizmi uchun asos (klinik oldi tadqiqotlar) yoki ekspert xulosasi mavjud

**Profilaktika, tashxislash, davolash va rehabilitatsiya tadbirlari bo‘yicha tavsiyalarning ishonchlilik darajasini baholash shkalasi**

<b>TID</b>	<b>Ta’rifi</b>
<b>A</b>	Kuchli tavsiya (barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega va ularning natijalari bo‘yicha xulosalari izchil)
<b>B</b>	Shartli tavsiyalar (ko‘rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar yuqori yoki qoniqarli uslubiy sifatga ega emas va/yoki ularning natijalari bo‘yicha xulosalari mos kelmaydi)
<b>C</b>	Zaif tavsiya (me’yoriy sifatli dalillarning yo‘qligi (ko‘rib chiqilgan barcha samaradorlik choralari (natijalari) muhim emas, barcha tadqiqotlar past uslubiy sifatga ega va ularning natijalari bo‘yicha xulosalari izchil emas)

## Asosiy qism.

### 1.1. Kirish

Qizamiq dunyodagi eng yuqumli kasalliklardan biri bo'lib, qizamiq bilan og'rikan odamning burun yoki tomog'idagi ajralmalar (yo'tal yoki aksirganda) yoki nafas olayotgan havo bilan aloqa qilish orqali tarqaladi. Virus havoda yoki zararlangan yuzalarda ikki soatgacha faol va yuqumli bo'lib qoladi. Shu sababli, u o'ta yuqumli bo'lib, qizamiq bilan kasallangan bir kishi u bilan yaqin aloqada bo'lgan eylanmagan 10 kishidan 9 tasiga kasallikni yuqtirishi mumkin. Qizamiq virusi toshma paydo bo'lishidan 4 kun oldin boshlanib, toshma paydo bo'lganidan keyin 4 kun o'tgungacha bo'lgan muddatda kasal odam tomonidan yuqishi mumkin.

Qizamiq epidemiyasi, ayniqsa, ovqatlanish yetishmovchiligi bo'lgan yosh bolalarda og'ir asoratlari va o'limga olib kelishi mumkin. Qizamiq eliminatsiyasiga yaqin kelgan mamlakatlarda boshqa mamlakatlardan olib kirilgan kasalliklar infeksiyaning muhim manbai bo'lib qolmoqda.

Qizamiq oqibatidagi o'limning aksariyati kasallikning asoratlari bilan bog'liq. Qizamiqning asoratlari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

- ko'rlik;
- ensefalit (miya shishiga va serebral buzilishlarning mumkin bo'lgan rivojlanishiga olib keluvchi infeksiya);
- og'ir diareya va unga bog'liq suvsizlanish;
- quloq infeksiyalari
- nafas olishda jiddiy muammolar, shu jumladan pnevmoniya.

Homiladorlik paytida qizamiq bilan kasallanish ona uchun xavfli bo'lib, chala tug'ilgan kam vaznli chaqaloq tug'ilishiga olib kelishi mumkin.

Ko'pincha asoratlari 5 yoshgacha bo'lgan bolalarda va 30 yoshdan oshgan kattalarda rivojlanadi. Ular ko'proq ovqatlanishda kamchiligi bor bolalarda, ayniqsa A vitamini yetishmovchiligi yoki OIV infeksiyasi yoki boshqa kasalliklar tufayli immuniteti zaif bo'lgan bolalarda uchraydi. Qizamiqning o'zi ham immunitetni zaiflashtiradi va tanani infeksiyalardan qanday himoya qilishni "unutib qo'yishi" ga olib kelishi mumkin, bu esa bolalar uchun o'ta jiddiy xavf tug'diradi.

<https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/measles>

#### Ta'rif:

Yuqori tana harorati (40,5 °C gacha), umumiy intoksikatsiya, og'iz bo'shlig'i va yuqori nafas yo'llari shilliq qavatining yallig'lanishi, konyunktivit va o'ziga xos makulopapulyar toshma bilan tavsiflangan yuqori sezuvchanlik darajasiga ega bo'lgan o'tkir yuqumli virusli kasallik (yuqumlilik indeksi 100% ga yaqinlashadi).

Qo'zg'atuvchisi qizamiq virusi (Polynosa morbillarum), Paramyxoviridae oilasining Morbillivirus turiga mansub. Virusli zarrachalar sharsimon, diametri 120-250 nm, tashqi vorsinkali pardasi, spiralsimon nukleokapsid, gemagglyutinini bo'lib, tarkibida neyrominidaza bo'lmaydi. RNK virusi spiralsimon oqsil kapsidi va tashqi lipid-oqsil qobig'i bilan o'ralgan. Qizamiq virusi shtammlari antigen jihatidan bir xil. Virus gemagglyutinatsiya qiluvchi, gemolizlovchi, komplementlarni biriktiruvchi faollik bilan ajralib turadi, virusni neytrallovchi antitanalar hosil bo'lishiga olib keladi. Qizamiq virusi fizik va kimyoviy omillarga chidamli emas, tashqi muhitda 30 daqiqadan ko'p bo'lmagan vaqt davomida saqlanadi, quyosh nuri va ultrabinafsha nurlanishiga sezgir, efir va formaldegid bilan faolsizlanadi. Tupuk tomchilarida u 30 daqiqa ichida o'ladi va u quriganida darhol o'ladi. Havo oqimi bilan sezilarli masofalarga tarqaladi. Past haroratlarda u bir necha hafta, -70 °C da esa 5 yil davomida faol bo'lib qoladi.

Qizamiq virusi qondan, nazofarengal yuvindilardan, najasdan, siydikdan, serebrospinal suyuqlikdan va konyunktivaning ajralmalaridan olinishi mumkin. Virusni o'stirish uchun turli xil to'qimalar kulturalari (odam buyragi va amnion, maymun buyraklari, itlar, dengiz cho'chqalari, buzoqlar, tovuq va yapon bedana embrionlaridan fibroblastlar) qo'llaniladi.

Virusning tarqalishi: Qizamiq virusi zararlangan odamlar yo'tali va aksirganda havotomchi yo'li bilan tarqaladi. U juda yuqumli, ya'ni kasal odam bilan yaqin masofada aloqa qilganda ham yuqishi mumkin.

### **1.3. Tasnifi:**

#### **Qizamiqning klinik tasnifi:**

##### **Turi:**

##### **1. Tipik**

##### **2. Atipik:**

- mitigirlangan;
- abortiv;
- noaniq;
- belgilersiz.

##### **Og'irligi bo'yicha:**

1. Yengil
2. O'rta og'irlikdagi
3. Og'ir

##### **Kechimi bo'yicha:**

1. Silliq
2. Silliq bo'lmagan:
  - asoratlar bilan

- ikkilamchi infeksiya qo‘shilishi bilan
- surunkali kasalliklarning qo‘zg‘ashi bilan.

## 2. Tashxisot usullari, yondashuvlari va muolajalari

### 2.1. Tashxislash mezonlari

[https://cdn.who.int/media/docs/default-source/immunization/vpd\\_surveillance/lab\\_networks/measles\\_rubella/manual-lab-diagnosis-of-measles-rubella-virus-infection-rus.pdf?sfvrsn=bf45b7a2\\_3](https://cdn.who.int/media/docs/default-source/immunization/vpd_surveillance/lab_networks/measles_rubella/manual-lab-diagnosis-of-measles-rubella-virus-infection-rus.pdf?sfvrsn=bf45b7a2_3)

#### 1) Shikoyatlar va anamnez, shu jumladan epidemiologik:

<b>Inkubatsion davr</b>	Qizamiqning inkubatsiya davri odatda 10-12 kunni tashkil qiladi, lekin odamlar orasida farq qilishi mumkin. Bu turli omillarga, jumladan, bemorning immunitet holatiga va unga ta'sir qilgan virus miqdoriga bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, inkubatsiya davrida virus tashuvchisiga aylanib bo'lgan odam uni boshqa odamlarga yuqtirishi mumkin, bu esa qizamiqni o'ta yuqumli kasallikka aylantiradi. Bu qizamiq tarqalishining oldini olish uchun emlash va profilaktika choralarining muhimligini ta'kidlaydi.
<b>Prodromal davr</b>	Ushbu davrda bemor kasallikning dastlabki belgilarini ko'rsata boshlaydi, ular quyidagi belgilarni o'z ichiga olishi mumkin: Isitma. Yo'tal. Konyunktivit (ko'zlarning yallig'lanishi). Tumov.
<b>Toshma toshish bosqichi</b>	Ushbu bosqichda terida xarakterli makulopapulyar toshmalar paydo bo'ladi. Bunday toshmalar odatda yuzdan boshlanadi va butun tanaga tarqaladi. Toshmalar bir-biriga qo'shib ketishi mumkin.
<b>Asoratlarning bosqichi</b>	Ba'zi bemorlarda qizamiq pnevmoniya (o'pkaning yallig'lanishi), ensefalit (miya yallig'lanishi) va diareya kabi jiddiy asoratlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Intoksikatsion sindrom: darmonsizlik, holsizlik, adinamiya, ovqat yeyishdan, suyuqlik ichishdan bosh tortish, yig'loqilik, uyqu buzilishi. Bosh og'rig'i, alaxsirash, qusish va konvulsiyalar rivojlanishi mumkin. Haroratning 38-39°C ko'tarilishi kataral davrda rivojlanadi. Kasallikning 2-3-kunida harorat pasayadi, ba'zan subfebril darajaga tushadi, kataral belgilar kuchayadi. Intoksikatsion sindrom toshma toshish bosqichining dastlabki 2 kunida yaqqol namoyon bo'ladi. Taxikardiya, qon bosimining pasayishi, yurak tovushlarining bo'g'ilishi va aritmiya kuzatiladi. EKGda miokard distrofiyasi belgilari aniqlanadi. Ikkilamchi nefropatiya (oliguriya, siydikda oqsil va silindlar) bo'lishi mumkin. Pigmentatsiya davrida bemorning harorati va umumiy ahvoli normallasadi.

Nafas olish yo'llarining zararlanish sindromi (kataral sindrom): burundan ko'p miqdorda shilliq ajralma, dinamikada shilliq-yiringli ajralma oqishi kuzatiladi. Yonoqlarning shilliq qavati

yorqin giperemik, bo'shshgan, dog'li bo'ladi. Quruq, qattiq, asabga teguvchi, ba'zida quv-quv yo'talning dinamikada kuchayishi aniqlanadi. Ovoz bo'g'ilishi, stenoz bilan namoyon bo'ladigan laringeal shish rivojlanishi mumkin. Ekzantemadan 1-2 kun oldin yumshoq va qattiq tanglayning shilliq qavatida 3-5 mm gacha bo'lgan kichik pushti-qizil, tartibsiz shaklli dog'lar — qizamiq enantemasi paydo bo'ladi. 1-2 kundan keyin enantema elementlari birlashadi va shilliq qavatning giperemik yuzasida farqlanmaydi. Dog'li enantema bilan bir vaqtda qizamiqning patognomonik alomati — Belskiy-Filatov-Koplik dog'lari — odatda yonoqlarning shilliq qavatida kichik molyarlarga qarshisida, kamroq hollarda lablar va milklarning shilliq qavatida paydo bo'ladi. Dog'lar kichik, 1-2 mm, kulrang-oq papulalarga o'xshash, ingichka giperemiya bilan o'ralgan, bir-biriga qo'shilmagan, shpatel bilan olib tashlanmaydi, 2-3 kun saqlanadi, ba'zan ular toshma toshishining 1-2 kundan oldinroq aniqlanishi mumkin. Kataral belgilar kasallikning 7-9 kunida pigmentatsiya davrida sustlashadi.

Ko'zning zararlanish sindromi: konyunktivit bilan tavsiflanadi, bunda ajralma asta-sekin yiringliga aylanadi. Ko'z qovoqlari shishadi. Fotofobiya kuzatiladi. Sklerit aniqlanadi.

Ekzantema sindromi: toshma toshishi bosqichlar bilan tavsiflanadi. Dastlab, qizamiq toshmalari burunning bel qismida, quloqlarning orqasida paydo bo'ladi. Birinchi 24 soat ichida toshma yuzga, bo'yinga, ko'krak va yelkaning yuqori qismiga tarqaladi. 2-kuni u tanani to'liq qoplaydi va qo'llarning proksimal qismlariga tarqaladi. 3-4 kunlarda — yuqori va pastki muchalarning distal qismlariga yetadi. Toshma papulyar xarakterga ega, yorqin pushti rang, dastlab kichik, bir necha soatdan keyin elementlar ko'payadi, birlashadi, katta, tartibsiz shaklli, makulopapular, yorqin qizil elementlarni hosil qiladi.

Toshma o'zgarmagan teri fonida muchalarning tashqi va ichki yuzalarida joylashgan. Yuzning shishishi, ko'z qovoqlari va burunning shishishi, yorilgan quruq lablar, "qizil" ko'zlar bilan tavsiflanadi.

Pigmentatsiya davrida toshma tezda qorayadi va gemosiderin hosil bo'lishi tufayli jigarrang bo'ladi. Pigmentatsiya toshmalar davrining 3-kunidan boshlab paydo bo'ladi va toshma paydo bo'lishi bilan bir xil tartibda bosqichma-bosqich sodir bo'ladi. Pigmentatsiya ba'zan kepaksimon qipiqanish bilan tugaydi.

Qizamiqning atipik shakllariga mitigirlangan, abortiv, noaniq, belgilersiz turlari kiradi. Kasallikning atipik shakllarini aniqlash, asosan, yaqin aloqa orqali infeksiya o'choqlarida tekshirish vaqtida, vaqt o'tishi bilan o'ziga xos qizamiqqa qarshi antitanalar titrining ortishi bilan sodir bo'ladi.

Inkubatsion davrda immunoglobulin, plazma va qon olgan bemorlarda mitigirlangan qizamiq rivojlanadi. Inkubatsion davrning 21 kungacha cho'zilishi, kataral davr, toshma va pigmentatsiya davrlari davomiyligining qisqarishi bilan tavsiflanadi. Kataral davr yo'q bo'lishi

yoki kam intoksikasiya va yengil kataral ko‘rinishlarning rivojlanishi bilan 1 kungacha qisqarishi mumkin. Toshma toshish davri 1-2 kungacha qisqaradi, toshma mayda, dog‘li, ko‘p emas, xira, bosqichlari tartibsiz bo‘ladi. Pigmentatsiya rangpar va qisqa muddatli bo‘ladi. Yonoqlarning shilliq qavati o‘zgarmaydi, enantema va Belskiy-Filatov-Koplik dog‘lari mavjud bo‘lmaydi.

Qizamiqning abortiv shakli tipik boshlanadi. Kasallikning 1-2 kunidan keyin klinik belgilar yo‘qoladi. Harorat faqat toshma davrining birinchi kunida ko‘tarilishi mumkin. Toshma asosan yuz va tanada joylashadi.

Qizamiqning noaniq shakli sust, tez o‘tib ketadigan intoksikasiya belgilari va kataral ko‘rinishlar bilan tavsiflanadi. Qizamiqning belgilersiz shakli klinik ko‘rinishlarning yo‘qligi bilan tavsiflanadi.

Qizamiqning asoratlari infeksiyaning har qanday bosqichida rivojlanishi mumkin. Etiologik omilga qarab, qizamiq virusi (birlamchi, o‘ziga xos) va boshqa patogenlar keltirib chiqaradigan xos bo‘lmagan (ikkilamchi) asoratlari o‘rtasida farqlanadi. Rivojlanish vaqtiga ko‘ra, asoratlar erta, ya’ni kataral davrda va toshma toshish davrida rivojlanadigan va kech, ya’ni pigmentatsiya davrida rivojlanadigan turlarga ajratiladi.

Asoratlari nafas olish tizimidan (pnevmoniya, laringit, laringotraxeit, bronxit, bronxiolit, plevrit), ovqat hazm qilish tizimidan (stomatit, enterit, kolit), asab tizimidan (ensefalit, meningoensefalit, meningit, miyelit), ko‘rish organlaridan (blefarit, keratit, keratokonjunktivit), eshitish organlari (otit, mastoidit), siydik tizimi (sistit, piyelonefrit), teri (piodermiya, absces, flegmona) kelib chiqqan holda farqlanadi.

## **2). Kasallik tarixi:**

- Qizamiq uchun anamnez olish kasallikning boshlanishi, isitma, uning davomiyligi, darmonsizlikning ko‘rinishi, bosh og‘rig‘i, uyqu buzilishi, ko‘ngil aynishi, qusish, tomoq og‘rig‘i, ko‘zlardagi og‘riqlar, fotofobiya, yo‘tal, tumovning paydo bo‘lishi, alahsirash, yig‘loqilik, uyqu buzilishi haqida to‘liq so‘rashni o‘z ichiga oladi

## **3). Epidemiologik anamnez:**

C

- qizamiq va/yoki ekzantema bilan bog‘liq har qanday kasallik bilan og‘rigan bemor bilan aloqa qilish, infeksiyaning yuqish yo‘lini aniqlash.

- qizamiqqa qarshi muntazam va shoshilinch emlash va/yoki immunoglobulin yuborish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlash tavsiya etiladi.

### **Klinisistlar uchun asosiy fikrlar**

<https://www.med-alphabet.com/jour/article/viewFile/784/976>

- Yuqori isitma, yoʻtal, konyunktivit, lablar va milklar hamda yonoqlarning shilliq qavatidagi oʻzgarishlar (Belskiy-Filatov-Koplik dogʻlari – keyinchalik yoʻqolib ketuvchi epiteliy nekrozini ifodalaydi), keyinchalik teri ustida bosqichma-bosqich toshuvchi makulopapulyar toshma kabi xarakterli klinik belgilarning mavjudligi.
- Epidemiologik maʼlumotlar: yuqtirgan odam bilan aloqa borligi yoki qizamiq bilan kasallangan epidemiologik xavfli hududda boʻlganligi.
- Laborator tadqiqotlar.

**Tavsiyalar** <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/measles>

Anamnezda davolanishni darhol boshlashga toʻsqinlik qiladigan yoki yondosh kasalliklarga qarab davolanishni muvofiqlashtirishni talab qiladigan omillarni aniqlashni hisobga olish kerak. Bunday omillarga:

- davolashning ushbu bosqichida ishlatiladigan dori vositalari va materiallarga nisbatan qabul qilolmaslik mavjudligi;
- davolanishdan oldin bemorning psixo-emotsional holatining adekvat emasligi;
- maxsus shifokor-mutaxassisni jalb qilishni talab qiladigan hayot uchun xavfli oʻtkir holat/kasallik yoki surunkali kasallikning kuchayishi;
- davolanishni rad etish.

## 2.2. Fizikal tekshiruv <https://www.mbu.ru/assets/files/kor.pdf>

<b>C</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- terining holatini, toshma elementlarini tekshirish.</li><li>- Ko‘z qovoqlari terisi, konyunktiva shilliq qavatini va ko‘z olmalarining holatini tekshiramiz.</li><li>- shilliq qavatning rangini, uning namligi darajasini, qon tomir izlarining yaqqoligini, toshmalar mavjudligini va patologik ajralmani qayd etamiz.</li><li>- Ko‘z olmalarini tekshirganda skleraning holatini aniqlaymiz.</li><li>- Qizamiq konyunktivit bilan xarakterlanadi, bunda ajralma asta-sekin yiringli bo‘lib, ko‘z qovoqlari shishadi, fotofobiya bo‘ladi.</li><li>- sklerit, blefarit, keratit, keratokonyunktivit bo‘lishi mumkin.</li><li>- Glasgo shkalasi yordamida es-xushning darajasini baholash tavsiya etiladi.</li><li>- meningeal simptomlarning mavjudligini (bo‘yin mushaklari rigidligi, Kernig, Brudzinski va boshqalar), katta liqildoqning bo‘rtib chiqishi va pulsatsiyasining mavjudligini aniqlash. Reflekslarni, yuz nervining shikastlanishini, nistagmni, muchalar falajini aniqlaymiz.</li><li>- ko‘rish va eshitish nervlarining shikastlanishini aniqlaymiz.</li><li>- Qizamiqda asab tizimi shikastlanishi mumkin (ensefalit, meningoensefalit, meningit, miyelit).</li><li>- Qizamiqda nafas olish tizimida asoratlar (pnevmoniya, laringit, laringotraxeit, bronxit, bronxiolit, plevrit) bo‘lishi mumkin. Kataral laringit va laringotraxeit asosan qizamiqning kataral davrida paydo bo‘ladi va toshmalar paydo bo‘lganda ba‘zan 1-3 kun davom etadigan qizamiq krupining rivojlanishi bilan yo‘qoladi. Keyingi bosqichda uning rivojlanishi ikkilamchi bakterial infeksiya bilan bog‘liq bo‘lib afoniya sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.</li><li>- Kasallikning har qanday davrida yosh bolalar uchun pnevmoniya xarakterlidir, ammo bronxopnevmoniya yoki interstitsial pnevmoniya qanchalik erta bo‘lsa, u shunchalik og‘irroq bo‘ladi: markaziy asab tizimi va yurak-qon tomir tizimining disfunktsiyasi bilan.</li></ul>
----------	---

### 1.3 Laboratoriya tadqiqotlari

<b>A</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>- qizamiq va/yoki ekzantema bilan bog‘liq har qanday kasallik bilan og‘rigan bemor bilan aloqa qilish, infeksiyaning yuqish yo‘lini aniqlash.</li><li>- qizamiqqa qarshi muntazam va shoshilinch emlash va/yoki immunoglobulin yuborish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aniqlash tavsiya etiladi.</li></ul>
----------	---

<https://iris.who.int/bitstream/handle/10665/360891/9789240052079-eng.pdf?sequence=1&isAllowed=y>

#### Asosiy laborator tashxisot:

<b>A</b>	<p>Serologik usul (IFT) bemorning (kasallikka shubha qilingan shaxslar) qon zardobida M sinfidagi immunoglobulinlarga (IgM) tegishli o‘ziga xos antitanalar ajratilganda qizamiq tashxisini tasdiqlash uchun muhimdir. Qizamiqning faol epidemiologik nazorati doirasida tekshirilgan isitma va makulopapulyar toshmalar bilan kasallangan odamlarda qizamiq virusiga IgM aniqlanganda, IgG uchun ikkita qon zardobini bir vaqtning o‘zida qo‘shimcha tekshirish o‘tkaziladi. Tadqiqot uchun qon yig‘ish toshma paydo bo‘lgan kundan boshlab 4-5-kunlarda (1-zardob) va birinchi namuna (2-zardob) olingan kundan boshlab 10-14 kundan kechiktirmay amalga oshiriladi. Standart serologik testlarda juftlashgan qon zardobini bir</p>
----------	---

vaqtda tekshirishda o'ziga xos IgG antitanalari titrining 4 yoki undan ko'p marta oshishi qizamiq tashxisi uchun asos bo'ladi.

#### **Real vaqt rejimida polimeraz zanjir reaksiyasi (PZR),**

**A** qizamiq patogenining genotipini aniqlash uchun ishlatiladi. Bemorda toshma paydo bo'lgan paytdan boshlab 1-3 kunlarda tadqiqot uchun klinik materialdan namunalar olinadi. Qizamiq virusini hujayra kulturasida ajratib olish va qizamiq virusi RNK sini ekstraksiyalash uchun klinik namunalar sifatida qon, siydik, nazofarengal surtmalar va yuvindilar qo'llaniladi, so'ngra qizamiq bilan og'rikan bemorlar va ushbu infeksiyaga shubha qilingan bemorlardan PZR va genotiplash amalga oshiriladi. Bir bemorning bir nechta namunalarini tekshirish (qon, siydik, nazofarengal namunalar) virusni izolyatsiya qilish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Toshma toshishining boshlanishidan dastlabki 3 kun ichida to'plangan namunalarni tekshirishda virusni izolyatsiya qilish ehtimoli eng yuqori hisoblanadi.

#### **Umumiy qon tahlili:**

**C**  
**5** leykopeniya, neytropeniya, limfositoz, ECHT o'zgarmaydi;

[https://medi.ru/klinicheskie-rekomendatsii/kor-u-detej\\_14036/](https://medi.ru/klinicheskie-rekomendatsii/kor-u-detej_14036/)

#### **1.4. Instrumental tadqiqotlar:**

#### **Qorin bo'shlig'i organlarining ultratovush tekshiruvi:**

**C**  
**5** Splenomegaliya sindromi bo'lgan bemorlar, taloqning hajmini va uning tuzilishini aniqlash uchun

#### **EKG:**

**C**  
**5** Yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan yoki bo'lmagan bemorlar, yurak zararlanishini erta aniqlash uchun (o'rtacha og'irlikdagi va og'ir qizamiqda)

#### **Ko'krak qafasi rentgenogrammasi:**

**C**  
**5** Ko'krak qafasi a'zolarining zararlanishiga shubha qilingan bemorlar

#### **1.5. Mutaxassislar konsultatsiyasi uchun ko'rsatmalar**

**C**  
**5** nevropatolog ko‘rigi - agar meningeal belgilar yoki talvasalar paydo bo‘lsa

**C**  
**5** anesteziolog-reanimatolog ko‘rigi — nafas olish buzilishlarida, poliorgan yetishmovchilikda  
kardiolog ko‘rigi — miokardit belgilarida


**C**  
**5** oftalmolog ko‘rigi — ko‘rish buzilishlarida

**C**  
**5** allergolog konsultatsiyasi — agar teri va shilliq pardalarda boshqa turdagi toshmalar paydo bo‘lsa

## 2) tashxislash algoritmi:

<https://cyberleninka.ru/article/n/algoritm-diagnostiki-kori-v-slozhnoy-epidemicheskoy-situatsii-analiz-klinicheskikh-dannyh/viewer>

### Shifokor harakatlarining algoritmi



## 3) qiyosiy tashxisot va qo'shimcha tadqiqotlar uchun asoslar:

<https://diseases.medelement.com/disease/%D0%BA%D0%BE%D1%80%D1%8C/13909>

## Qizamiqning qiyosiy tashxisoti

<b>A 1</b>	<ul style="list-style-type: none"> <li>- allergik dermatit;</li> <li>- skarlatina;</li> <li>- soxta sil;</li> <li>- qizilcha;</li> <li>- meningokokksemiya;</li> <li>-Suvchechak;</li> <li>- enteroviral ekzantema.</li> </ul>
----------------	--

qiyosiy tashxisot va qo‘shimcha tadqiqotlar uchun asoslar:

<https://diseases.medelement.com/disease/%D0%BA%D0%BE%D1%80%D1%8C/13909>

<https://cyberleninka.ru/article/n/algorithm-diagnostiki-kori-v-slozhnoy-epidemicheskoy-situatsii-analiz-klinicheskikh-dannyh/viewer>


Alomatlar	Skarlatina	Soxta sil kasalligi	Qizamiq	Qizilcha	Meningokokksemiya	Suvchechak
<b>Prodromning mavjudligi</b>	Yo‘q	Yo‘q	bor, 3-4 kun	yo‘q yoki 1-2 kun	Yo‘q	yo‘q
<b>Tana harorati</b>	febril 3-5 kun	febril 4-6 kun	subfebril 3-4 kun, keyin febril 3 kun	normal yoki subfebril 2-3 kun	febril 5-7 kun	Subfebril yoki febril 3-5 kun
<b>Yuqori nafas yo‘llarining katari</b>	yo‘q	ifodalangan	ifodalangan	sust ifodalangan	yo‘q	yo‘q
<b>Angina</b>	xarakterli (kataral, lakunar, nekrotik)	kataral	kataral	yo‘q	yo‘q	yo‘q
<b>Konyunktivit</b>	yo‘q	sklerit	xarakterli	kamdan kam	yo‘q	yo‘q
<b>Intoksikatsiya</b>	o‘rtacha ifodalangan, 3-5 kun davom etadi	o‘rtacha ifodalangan	kuchli ifodalangan 6-8 kun davom etadi	Sust ifodalangan yoki yo‘q	kuchli ifodalangan, 3-5 kun davom etadi	sust ifodalangan, 3-5 kun davom etadi
<b>Toshma paydo bo‘lish vaqti</b>	1-2 kun davomida	2-3 kun davomida	4-5 kun davomida	1-2-kuni	1-2 kun davomida	1 kunda
<b>Toshma ortishi</b>	1 kun	1-2 kun	3 kun bosqichli:	1-2 kun	1-2 kun	3-5 kun to‘lqinsimmoon

<b>davomiyli gi</b>			yuz-tana- muchalar			
<b>Toshma tabiati</b>	nuqtali, to‘planish joylarida — petexial, giperemik fonda	nuqtali, to‘planish joylarida — petexial, giperemik fonda	makulopapulyar, qo‘shilishga moyil	Aksariyat hollardag‘li	gemorragik, noto‘g‘ri shaklli, markaziy nekroz bilan	"yolg‘on polimorfizm": dog‘-papula-vezikula-qobiq
<b>Toshmani ng asosiy joylashuvi</b>	tabiiy burmalar, tananing lateral yuzalari, muchalarni bukiluvchi yuzalari; nazolabial uchburchak sohasida yo‘qligi	"kapyushon", "qo‘lqop", "paypoq" belgilari	sevimli lokalizatsiya yo‘q	eng ko‘p dumbalarda, oyoq-qo‘llarning yoyiluvchi yuzalarida	ayniqsa dumba va oyoqlar sohasida	sevimli lokalizatsiya yo‘q
<b>Pigmentatsiya</b>	yo‘q	yo‘q	xarakterli	yo‘q	yo‘q	yo‘q
<b>Qipqlanish</b>	yirikplastinkasimon-kaftlarda, oyoqlarda, tanada-kepaksimon	yirikplastinkasimon-kaftlarda, oyoqlarda, tanada-kepaksimon	kepaksimon	yo‘q	yo‘q	yo‘q
<b>Enantema</b>	yumshoq va qattiq tanglayda nuqtali, pushtirang, ekzantema bilan bir vaqtda paydo bo‘ladi.	Og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatida dog‘li enantema	1) yuzlar, milkar, lablar shilliq pardasida — oqish papulalar: Belskiy-Filatov-Koplik dog‘lari kasallikning 2-3 kunida paydo bo‘ladi va 2-3 kun saqlanadi 2) yumshoq va qattiq tanglay	yumshoq va qattiq tanglayning shilliq qavatida bo‘lishi mumkin, ekzantema bilan bir vaqtda paydo bo‘ladi.	yo‘q	og‘iz shilliq qavatidagi eroziyalar

			shilliq qavatida ekzantema bilan bir vaqtda paydo boʻladigan pushti dogʻlar			
<b>Tilning holati</b>	birinchi 1-2 kun davomida karashli, keyin "malinali"	1-2 kundan boshlab oq karash bilan qoplanadi, 5-7 kundan keyin tozalanadi	xususiyatlar siz	xususiyatlar siz	xususiyatlar siz	xususiyatlar siz
<b>Yurak-qon tomir tizimi va boshqa organlarning shikastlanishi</b>	1-hafta — simpatik faza: taxikardiya, qon bosimi oshishiga moyillik; 2-hafta — vagus fazasi; bradikardiya, qon bosimi tushishi, yurak chegaralari kengayishi	diareya, qisqa muddatli sariqlik, reaktiv gepatit, artralgiya	xususiyatlar siz	xususiyatlar siz	infeksion-toksik shokning tez-tez rivojlanishi, yiringli meningit	xususiyatlar siz
<b>Limfatik tugunlar</b>	submandibular limfa tugunlarining kattalashishi	periferik limfa tugunlarining kattalashishi	xususiyatlar siz	Oksipital va orqa boʻyin limfa tugunlari kattalashishi	xususiyatlar siz	xususiyatlar siz

## Toshmaning tabiatiga asoslangan qizamiqning qiyosiy tashxisot algoritmi

<https://cyberleninka.ru/article/n/klinicheskaya-harakteristika-i-differentsialnaya-diagnostika-kori>



### 3. Ambulator davolash taktikasi:

<b>A 1</b>	Amalga oshirilmaydi. Shoshilinch kasalxonaga yotqizish. Qizamiq tashxisi bo'lgan bemorlarni uyda izolyatsiya qilish va boshqalar bilan aloqani kamaytirish kerak. Iloji bo'lsa, alohida xona va hammom bo'lishi tavsiya etiladi.
----------------	---

### 4. Tibbiy yordam turlarini hisobga olgan holda kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar:

#### 1) rejalashtirilgan kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar


<b>A 1</b>	Amalga oshirilmaydi
----------------	---------------------

#### 2) shoshilinch kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar:

<b>A 1</b>	-qizamiqning og'ir va o'rta og'ir shakllari; -yondosh/surunkali kasalliklarga bilan birga qizamiq; -homilador ayollarda qizamiq
----------------	---

## 6. Statsionar darajada davolash taktikasi:

bemorni kuzatuv xaritasi, bemorni yo‘naltirish (sxemalar, algoritmlar): <https://www.med-alphabet.com/jour/article/viewFile/784/976>



## Tavsiyalar:

<https://diseases.medelement.com/disease/%D0%BA%D0%BE%D1%80%D1%8C/13909>

<b>A 1</b>	Davolash maqsadlari: <ul style="list-style-type: none"><li>• intoksikatsiya belgilarini bartaraf etish;</li><li>• asoratlarni oldini olish.</li></ul>
----------------	---

## Nomedikamentoz davо:

<b>S 5</b>	Rejim: -yotoq rejimi (butun isitma davrida); -palatali rejim (tana harorati normallashtirildandan soʻng).
	diyeta: stol №13 koʻp suyuqlik ichish, bemor holatiga koʻra zondan yoki parenteral ovqatlanirish. Sutli va sabzavotli parhez
	Terini, ogʻiz, koʻz, burun va quloqlarning shilliq pardalarini gigiyenik parvarish qilish.

Oʻzbekiston Respublikasida roʻyxatdan oʻtmagan dori-darmonlarni klinik protokolga kiritish bepul tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi doirasida va majburiy ijtimoiy tibbiy sugʻurta tizimiga qoplash uchun asos boʻlmaydi.

## 2) Ambulator bosqichda tibbiy davolanish:

<https://diseases.medelement.com/disease/%D0%BA%D0%BE%D1%80%D1%8C/13909>

### Asosiy dori vositalari roʻyxati (foydalanish ehtimoli 100%)

Farmakoterapevtik guruh	Dori vositasi nomi	Qoʻllash usuli	Dalillar ishonchlik darajasi	Havola
Anilidlar	paratsetamol	Tabl., suspenziya	B	<a href="https://mediqlab.com/drugs/0d7b6a87-63bd-4ce8-9774-d9badce7a722">https://mediqlab.com/drugs/0d7b6a87-63bd-4ce8-9774-d9badce7a722</a>
Propion kislota unumlari	ibuklin	Tabl.	B	<a href="https://mediqlab.com/drugs/5a85941c-d30a-49af-9b70-a29ddbedaf40">https://mediqlab.com/drugs/5a85941c-d30a-49af-9b70-a29ddbedaf40</a>
Vitaminlar	Vitamin A	Ichishga	B	<a href="https://mediqlab.com/drugs/d376f5c9-a2af-418f-858f-5029830fd2cd">https://mediqlab.com/drugs/d376f5c9-a2af-418f-858f-5029830fd2cd</a>
Ogʻiz boʻshligʻi kasalliklarini davolash uchun mikroblarga qarshi va antiseptik dori vositalari (A01AV)	Xlorgeksidin		A	<a href="https://mediqlab.com/drugs/4a029c33-e84b-4384-94f6-91c0a9431b9b">https://mediqlab.com/drugs/4a029c33-e84b-4384-94f6-91c0a9431b9b</a>

Tizimli ta'sirga ega antigistamin preparatlar (R06AX)	Loratadin	Tabl., m/i, v/i	A	<a href="https://mediqlab.com/drugs/86e315d7-e3f0-4771-bce2-e2ca1dab9119">https://mediqlab.com/drugs/86e315d7-e3f0-4771-bce2-e2ca1dab9119</a>
---	-----------	-----------------	---	---

Qo'shimcha dorilar ro'yxati (foydalanish ehtimoli 100% dan kam):

Farmakoterapevtik guruh	Dori vositasi nomi	Qo'llash usuli	Dalillar ishonchlik darajasi	Havola
Yo'talga qarshi va balg'am ko'chiruvchi dori vositalar (R05FB)	Ambroksol Kodelak bromgeksin	Ichishga	C	<a href="https://mediqlab.com/drugs/113a8384-55fd-4451-88f0-b157b52692b9">https://mediqlab.com/drugs/113a8384-55fd-4451-88f0-b157b52692b9</a> <a href="https://mediqlab.com/drugs/70471cde-a4ca-45df-9a95-b2ddbce773f5">https://mediqlab.com/drugs/70471cde-a4ca-45df-9a95-b2ddbce773f5</a>
Vitaminlar	Askorbin kislotasi	Ichishga, v/i	C	<a href="https://www.vidal.ru/drugs/ascorbic_acid_4031">https://www.vidal.ru/drugs/ascorbic_acid_4031</a>

**Dori vositalari bilan davolanish faqat statsionar darajada amalga oshiriladi:**

<http://niidi.ru/dotAsset/eed9b132-1dc0-4adc-8833-092e5e36fa66.pdf>

